

“OMADINGNI ILIB OL!” AKSIYASINING QOIDALARI VA SHARTLARI

Aksiyada ishtirok etish qoidalari va shartlari (keyingi o‘rinlarda – «Qoidalar») “COSCOM” MCHJ bilan uyali radiotelefon aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Ommaviy ofertaning shartlarini qabul qilgan jismoniy shaxslarga – Aksiya ishtirokchilariga (keyingi o‘rinlarda – Abonentlar/Aksiya ishtirokchilari) qaratilgan ommaviy oferta hisoblanadi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Aksiya doirasida quyidagi atamalar va ta’riflar qo‘llaniladi:

- **TASHKILOTCHI/OPERATOR** - “COSCOM” mas’uliyati cheklangan jamiyat (qisqartirilgan nomi “COSCOM” MChJ, “Ucell” savdo belgisi), 2018 yil 17 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan berilgan AA 0006634-sonli Litsenziyaga muvofiq uyali radiotelefon aloqasi xizmatlarini ko‘rsatadi.
- **ABONENT** – operatorning uyali radiotelefon aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Ommaviy ofertasi shartlarini qabul qilgan, 18 yoshga to‘lgan har qanday jismoniy shaxs. Abonent raqami — Operator tomonidan Abonentga ommaviy oferta shartlari amal qiladigan davr uchun ajratiladigan va Operator tarmog‘iga ulangan Abonent qurilmasini identifikatsiya qiluvchi raqam. Agar Aksiyada ishtirok etayotgan SIM-karta 18 yoshga to‘lmagan shaxs nomiga rasmiylashtirilgan bo‘lsa, sovg‘ani olish abonent raqami uning roziligi bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qonuniy vakili — ota-onasi yoki vasiysi tomonidan amalga oshiriladi. Qonuniy vakil o‘z vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatni hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi, shuningdek, voyaga yetmagan shaxs nomidan sovg‘ani qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolashi shart.
- **ABONENT QURILMASI** – Abonentga tegishli (Abonent tomonidan foydalaniladigan) va Abonent belgilagan ma’lumotni aloqa kanallari orqali uzatish yoki qabul qilish uchun Tarmoqqa ulanadigan ko‘chma radiotelefon (uyali) aloqa qurilmasi.
- **KOMPANIYA VEB-SAYTI** – <https://ucell.uz> elektron manzilida joylashtirilgan Operatorning Internet tarmog‘idagi axborot resursi.
- **SMS** (qisqa xabarlar xizmati) - Operator tomonidan Abonentga ko‘rsatiladigan xizmat bo‘lib, u orqali Abonent uyali telefondan qisqa matnli xabarlarni yuborishi va uyali telefonda qabul qilishi mumkin.
- **TARMOQ** – Operatorning texnik vositalari majmuasi (kommutatsiya va radio uskunalari, abonent qurilmalari, ulanish liniyalari, inshootlar va hokazo) bo‘lib, ular yordamida Abonentga O‘zbekiston Respublikasi hududida aloqa xizmatlari ko‘rsatiladi.
- **AKSIYA ISHTIROKCHISI** – Prepaid va Postpaid* tizimidagi jismoniy shaxs Abonenti bo‘lib, Ucell mobil ilovasida “Ishtirok etish” tugmasini bosish orqali ushbu Qoidalariga rozilik bildirgan shaxs.

*Postpaid tizimidagi quyidagi shartnomalarda xizmatlardan foydalanuvchi Kompaniya abonentlarining aksiyaga foydalanish huquqi:

- Corporate VIP PINFL
- Corporate VIP Non-PINFL
- Individual Postpaid PINFL
- Individual Postpaid Non-PINFL
- **AKSIYA** – Abonentlarga aksiyada ishtirok etish imkoniyatini taqdim etish bo‘lib, unga ulanish orqali Abonent Operator tomonidan «Omadingni ilib ol!» nomi ostida o‘tkazilayotgan Obuna doirasida har kuni bittadan xizmat olish huquqiga ega bo‘ladi.
- **AKSIYADA ISHTIROK ETISH** – Tashkilotchi tomonidan belgilangan ushbu Oferta shartlarini Abonent tomonidan to‘liq va so‘zsiz qabul qilishi, Tashkilotchi belgilagan Aksiyada ishtirok etish talablari bilan roziligi hamda Tashkilotchi tomonidan belgilangan ushbu Oferta shartlariga rioya etish majburiyatini Abonentning zimmasiga olishi.
- **OBUNA** – ma’lum bir muddat davomida belgilangan to‘lov evaziga Abonentga Aksiyaga kirish imkoniyatini taqdim etish. Obuna avtomatik uzaytirish funksiyasi qo‘llangan holda taqdim etiladi.

- **RO'YXATDAN O'TISH/AVTORIZASIYA** – SMS orqali olingan vaqtinchalik parolni mobil ilova interfeysiga kiritish yo'li bilan mobil ilova orqali bajariladigan harakatlar amalga oshiriladigan telefon raqamini tasdiqlash.
 - **SHAXSIY HISOB** – Operatorning billing tizimidagi tahliliy hisob registri bo'lib, u ko'rsatilgan Xizmatlar hajmini, ushbu Shartnoma asosida Abonent tomonidan Xizmatlar uchun to'lov sifatida kiritilgan mablag'larning tushumi va sarfini hisobga olish uchun mo'ljallangan.
 - **LIMITLAR** – aksiya ishtirokchisiga ma'lum ishtirok shartlarini bajargan taqdirda taqdim etiladigan maxsus to'plamlar (internet-trafik, daqiqalar, SMS yoki qo'shimcha GSM xizmatlari). Tasodifiy tarzda taqdim etiladi, Ishtirokchi tomonidan tanlash mumkin emas (Premium imkoniyatlar bundan mustasno) va ular cheklangan muddat davomida amal qiladi.
 - **MOBIL ILOVA** – Ishtirokchilarga Aksiyaga kirish, uning mexanizmlaridan foydalanish, limit to'plamlarini olish, obunani boshqarish, jarayonni kuzatish va o'yinlarda ishtirok etish imkonini beruvchi «Ucell» mobil ilovasi.
 - **TELEFONNI SILKITISH** – Foydalanuvchi limitlardan birini o'ynash jarayonini ishga tushirish uchun telefonni jismonan silkitadi. Bu Aksiyaning geymifikatsiya (o'yin uchun) qilingan elementi bo'lib, u kundalik obuna yoki to'langan qo'shimcha Imkoniyat doirasida limit to'plamlarini olishni faollashtiradi.
«Telefonni silkitish» funksiyasi faqat akselerometr bilan jihozlangan qurilmalarda, Ucell ilovasiga undan foydalanishga ruxsat berilgan taqdirda mavjud bo'ladi. Akselerometr mavjud bo'lmasa yoki unga kirish bloklangan bo'lsa, foydalanuvchi funksiyani ishga tushirish uchun telefonni silkitish o'rniga oddiygina ekranga bosishi mumkin.
 - **IMKONIYAT** – kun davomida qo'shimcha bonus olish maqsadida «Telefonni silkitish» funksiyasidan foydalanish imkoniyati.
Har bir Imkoniyat uchun alohida to'lov amalga oshiriladi va yangi Limitni (xizmatni) yutib olishga urinish huquqini beradi. Kuniga maksimal – 3 ta qo'shimcha imkoniyat.
 - **PREMIUM IMKONIYAT** – kun davomida premium limit to'plamini olish maqsadida «Barsik Kosmosda» o'yinini o'ynash imkoniyatidan qo'shimcha foydalanish huquqi. Har bir Imkoniyat uchun alohida to'lov amalga oshiriladi va yangi Limitni (xizmatni) yutib olishga urinish huquqini beradi. Kuniga maksimal – 3 ta qo'shimcha premium imkoniyat.
 - **O'YIN «PREMIUM O'YIN»** – Ucell mobil ilovasi ichidagi mini-o'yin: Ishtirokchi Qurilmani egish orqali qahramonni (Barsikni) boshqaradi, tanga yig'adi va 60 soniya davomida to'siqlardan qochadi.
O'yinda Barsikni boshqarish qurilmada akselerometr o'rnatilgan va unga ruxsat berilgan bo'lsa, qurilmani egish orqali amalga oshirilishi mumkin. Akselerometr mavjud bo'lmaganda yoki unga kirish bloklangan bo'lsa, boshqaruv ekranga teginish orqali amalga oshiriladi, bunda ishtirokchi Barsikni yo'naltiradi.
 - **SUPER-O'YIN** – Aksiya doirasidagi yakuniy o'yin bo'lib, u 100% Progressga erishilgandan so'ng ochiladi. Bu mukofotlar g'alvirini aylantirish bo'lib, unda ishtirokchi qaysi bonusni olishi (limitlar to'plami yoki jismoniy sovrin) tasodifiy aniqlanadi.
 - **PROGRESS** – Aksiyada ishtirok faolligini foizlarda (0 dan 100% gacha) ifodalovchi ko'rsatkich. Pullik funksiyalardan (kundalik obuna, Imkoniyatlar, Premium Imkoniyatlar) foydalanish jarayonida Progress oshib boradi. 100% Progressga erishish Super-o'yinga kirish imkonini beradi. Oyning oxirida Progress qayta nolga tushiriladi.
 - **G'OLIB** – Super-o'yinda ishtirok etish natijalariga ko'ra Operator tomonidan taqdim etiladigan jismoniy sovrin yoki muhim bonusli xizmatlar to'plamiga ega bo'ladigan Aksiya ishtirokchisi.
- 1.2. Abonentlarga pullik xizmat taklif etiladi, ya'ni aksiyada ishtirok etish imkoniyatini beruvchi ulanish orqali Abonent har kuni Obunaga muvofiq bitta xizmat olish imkoniyatiga ega bo'ladi.
 - 1.3. Aksiya davomida 1 (bir) kun ichida Ishtirokchi mos obuna doirasida 1 (bitta) xizmatni tasodifiy tartibda olish huquqiga ega.
 - 1.4. Aksiya ushbu Qoidalaridagi tartib, muddat, shart va jarayonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

2. AKSIYANI O'TKAZISH QOIDALARI

- 2.1. Aksiyada faqat Prepaid va Postpaid* tizimidagi jismoniy shaxslari, Faol holatda bo'lgan abonentlar, Ucell mobil ilovasida ro'yxatdan o'tgan/avtorizatsiyadan o'tganlar ishtirok etishi mumkin. Aksiya Ucell mobil ilovasining 2.9 va undan yangi versiyalarida mavjud.

*Postpaid tizimidagi quyidagi shartnomalarda xizmatlardan foydalanuvchi Kompaniya abonentlarining aksiyaga foydalanish huquqi:

- Corporate VIP PINFL
- Corporate VIP Non-PINFL
- Individual Postpaid PINFL
- Individual Postpaid Non-PINFL

2.2. Aksiyani o'tkazish shartlari:

2.2.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Abonent «Ucell» mobil ilovasini (Android, iOS va Harmony OS uchun mavjud) yuklab olib, o'rnatishi, mobil ilovada ro'yxatdan o'tishi, Aksiya shartlarini qabul qilishi, Aksiyada ishtirok etishga obuna bo'lishi va mobil ilovadan foydalanishni boshlashi kerak. Shundan so'ng Abonent Aksiya Ishtirokchisiga aylanadi.

2.2.2. Aksiya mexanikasi:

- Mobil ilovada ro'yxatdan o'tgach, Ishtirokchiga Aksiyani faollashtirish uchun «Ko'ngilochar» bo'limiga o'tish imkoniyati beriladi.
- Ishtirokchi kundalik yoki oylik Obunani faollashtirishi kerak.
-

Obunaning (Aksiyada ishtirok etishning) narxi quyidagicha:

Obuna	Narxi
Kundalik obuna*	399 so'm (QQS bilan), avtomatik uzaytirish bilan
Oylik obuna*	10 999 so'm (QQS bilan), avtomatik uzaytirish bilan

**Kundalik yoki oylik obuna tanlangan to'plam bo'yicha abonent to'lovi mos ravishda har kuni yoki har oyda yechib borilishini nazarda tutadi.*

- Obuna tanlangandan so'ng Aksiya ishtirokchisiga 3 (uch) kunlik 1 so'm evaziga sinov muddati taqdim etiladi.
- Mazkur sinov davrida Ishtirokchi tasodifiy limitlardan birini olish uchun 1 (bitta) bepul Imkoniyatdan foydalanishi mumkin.
- Sinov muddati tugagach, Ishtirokchi ilgari tanlagan obunaning pullik versiyasiga o'tadi.
- Kundalik limitni olish uchun Ishtirokchi «standart o'yin» amalini bajarishi kerak bo'ladi, bu esa obuna doirasidagi birinchi bepul imkoniyat hisoblanadi. Mazkur amal bajarilgandan so'ng tizim tasodifiy tarzda Aksiya shartlarida ko'zda tutilgan limitlardan birini aniqlaydi va Ishtirokchiga tanlangan xizmatni ulash imkoniyatini beradi.
- Obuna doirasida Aksiya Ishtirokchisi aksiyani o'tkazish davri mobaynida har kuni tasodifiy tartibda bittadan xizmat olish imkoniyatiga ega.

2.3. Imkoniyatlardan foydalanish mexanikasi:

2.3.1. Aksiya ishtirokchisiga qo'shimcha to'lov evaziga, kuniga 1 (bir) marta, qo'shimcha Imkoniyatdan foydalanish, «Telefonni silkit» amalini bajarish va limitlarni qo'lga kiritish imkoniyati beriladi.

2.4. Imkoniyat narxi:

Imkoniyat	Narxi
Qo'shimcha imkoniyat	499 so'm QQS bilan

2.4.1. Faollik foizi Aksiya sahifasida ko'rsatiladi.

2.5. Premium Imkoniyatlardan foydalanish mexanikasi:

2.5.1. Aksiya ishtirokchisi har kuni, kuniga 3 martagacha, qo'shimcha Premium Imkoniyatlardan foydalanib limitlarni qo'lga kiritishi mumkin.

2.5.2. Har bir Imkoniyat alohida to'lanadi:

Premium Imkoniyatlar narxi:

Imkoniyat	Narxi
Birinchi Premium imkoniyat	499 so'm QQS bilan
Ikkinchi Premium imkoniyat	699 so'm QQS bilan
Uchinchi Premium imkoniyat	999 so'm QQS bilan

- 2.5.3.
- 2.5.4. Premium Imkoniyat uchun to'lov amalga oshirilgach, Ishtirokchiga «Premium o'yin»da qatnashish taklif etiladi.
- 2.5.5. O'yinda 60 soniya davomida telefonni egish orqali tanga yig'ish va to'siqlardan qochish kerak bo'ladi.
- 2.5.6. «Premium o'yin» yakunida tasodifiy tarzda premium xizmatlardan biri taqdim etiladi.
- 2.5.7 Aksiya ishtirokchisiga limitlar tasodifiy tarzda belgilanadi, limit turini tanlash imkoniyati faqat premium to'plamlar doirasida taqdim etiladi. Buning uchun Aksiya ishtirokchisi «Premium o'yin»da qatnashishi kerak bo'ladi, shundan so'nggina tizim Aksiya doirasida ko'zda tutilgan xizmatlardan birini tasodifiy tanlab beradi.

3. SUPER-O'YINNI O'TKAZISH QOIDALARI

- 3.1. Super-o'yinda ishtirok etish uchun Ishtirokchi o'z Faollik Progressini 100% ga yetkazishi kerak.
- 3.2. Super-o'yinda qatnashish uchun Ishtirokchining abonent raqami Faol holatda bo'lishi va Obuna ulangan bo'lishi shart.
- 3.3. 100% Progress to'plagan Ishtirokchi «Super-o'yin» bo'limiga o'tib, «O'ynash» tugmasini bosishi lozim. Shundan so'ng barabanni aylantrish imkoniyati beriladi. Baraban to'xtashi yakunida Ishtirokchi tasodifiy tarzda belgilanadigan sovrinni yutib olishi mumkin.
- 3.4. Aksiya «Omadingni qo'lga ol» o'tkazilish davri mobaynida super sovrin – «Chiroyli raqam»ni har bir abonent raqami butun faoliyat davri davomida faqat bir marta yutib olishi mumkin.
- 3.5. Bir Ishtirokchi bir kalendar oy davomida faqat bitta «Qurilma» sovrinini yutib olish imkoniyatiga ega.
- 3.6. Tashkilotchi kalendar oy davomida «Qurilma» sovrini sifatida qurilmalarni rozilikka qo'yishi yoki qo'ymasligi, zarur hollarda «Qurilma» sovrini o'yin mexanikasini o'zgartirish huquqiga ega.
- 3.7. Har bir Super-o'yinning amal qilish muddati bir kalendar oy bilan cheklanadi. Super-o'yinda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lgan Ishtirokchi ushbu imkoniyatdan aynan shu imkoniyat berilgan kalendar oy yakunigacha foydalanishi kerak. Aks holda, ishtirok etish imkoniyati bekor qilinadi.

4. Aksiyada ishtirokni bekor qilish tartibi:

- Aksiyada ishtirokni bekor qilish uchun Ucell mobil ilovasida «Ko'ngilochar» bo'limiga o'tib, «Aksiyalar» bo'limini tanlab, mos Aksiyani o'chirish kerak;
 - Aksiyaning pullik davrini o'chirish «Ucell» ilovasidagi «Ulangan xizmatlar» bo'limida amalga oshiriladi;
 - Aksiyaning sinov davrini o'chirish; Ucell ilovasidagi «Ulangan xizmatlar» bo'limida amalga oshirib bo'lmaydi;
 - *350# USSD-so'rovi orqali Aksiyani o'chirish imkoni yo'q.
- 4.1.1. Pullik yoki sinov obunani o'chirish holatida Aksiya doirasidagi abonent to'lovi yechib borilishi to'xtatiladi, shu bilan birga Ishtirokchining Aksiyadagi ishtiroki ham bekor qilinadi va Progressi nolga tushiriladi.
 - 4.1.2. Ucell mobil ilovasini qurilmadan o'chirish Obuna amal qilishini to'xtatmaydi va uni bekor qilmaydi.
 - 4.1.3. Agar Super sovrin 29 kun davomida Super-o'yinda yutib olinmasa, u holda eng faol Aksiya ishtirokchilari orasida qo'shimcha o'yin o'tkaziladi.

5. AKSIYADA ISHTIROK ETISH QIYMATI

- 5.1. Aksiya yangi foydalanuvchilar uchun ulanishdan keyingi dastlabki 3 kun 1 so'm evaziga sinov tariqasida taqdim etiladi, sinov muddati tugagach, pullik Obuna avtomatik tarzda faollashtiriladi.
- 5.2. Obunaning (Aksiyada ishtirok etishning) narxi quyidagicha:

Obuna	Narxi
Kundalik obuna	399 so'm (QQS bilan), avtomatik uzaytirish bilan
Oylik obuna	10 999 so'm (QQS bilan), avtomatik uzaytirish bilan

- Kundalik obunaning amal qilish muddati to'lov amalga oshirilgan kunning 23:59:59 daqiqasigacha davom etadi.
- Kundalik obuna uchun mablag' har kuni 00:00 dan 06:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida yechib olinadi. 30 kunlik obuna uchun mablag' 31-kuni 00:00 dan 06:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida yechib olinadi.
- Obuna uchun to'lov muvaffaqiyatli amalga oshirilgan taqdirda, obuna turi bo'yicha amal qilish muddati 1 kun yoki 30 kun (obuna turiga qarab) belgilangan vaqtdan boshlab hisoblanadi.
- Agar abonent 30 kun davomida to'lovni amalga oshirmasa, u «Faol emas» holatiga o'tkaziladi. Obuna to'plami («To'lov kutilmoqda» holatida bo'lgan) o'chiriladi va avtomatik tarzda o'yindan chiqarib tashlanadi.
- Aksiya ishtirokchisi faqat bitta turdagi obunani ulashi mumkin: «Kundalik obuna» yoki «Oylik obuna».
- Ishtirokchi kundalik obunani oylikka, yoki oylik obunani kundalik obunaga almashtirish imkoniyatiga ega. Bunda amal qiluvchi obuna shartlariga muvofiq yangi obuna kuchga kiradi (avvalgi obunaning amal qilishi bekor qilinadi).
- Har bir to'langan Imkoniyatning amal qilish muddati to'lov amalga oshirilgan kunning 23:59:59 daqiqasigacha davom etadi.
- Aksiya ishtirokchisiga qo'shimcha to'lov evaziga, kuniga bir marta, qo'shimcha Imkoniyatlardan foydalanish imkoniyati beriladi.

1.2. Imkoniyat narxi:

Imkoniyat	Narxi
Qo'shimcha imkoniyat	499 so'm QQS bilan

5.3. Premium Imkoniyatlar narxi:

Imkoniyat	Narxi
Birinchi Premium imkoniyat	499 so'm QQS bilan
Ikkinchi Premium imkoniyat	699 so'm QQS bilan
Uchinchi Premium imkoniyat	999 so'm QQS bilan

- Har bir to'langan Premium Imkoniyatning amal qilish muddati to'lov amalga oshirilgan kunning 23:59:59 daqiqasigacha davom etadi.
- Har bir Premium Imkoniyat Ishtirokchiga bir marta «Premium o'yin»da qatnashish va bitta Premium xizmat/limit olish imkoniyatini beradi.
- Aksiya ishtirokchisiga qo'shimcha to'lov evaziga, kuniga 3 martagacha Premium Imkoniyatlardan foydalanish huquqi beriladi.

5.4. To'lov Aksiya Ishtirokchisining abonent raqami Shaxsiy hisobidan yechib olinadi.

5.5. Progress shartlari:

5.5.1. Ishtirokchining Faollik Progressi mobil ilovada 0% dan 100% gacha foizlarda ko'rsatiladi.

5.5.2. Progress quyidagi mexanika bo'yicha belgilanadi:

Muvaffaqiyatli to'lov	Progress
Birinchi imkoniyat Standart o'yin (obuna doirasida berilgan imkoniyat)	+ 1%
Qo'shimcha imkoniyatga to'lov	+ 2%
Birinchi premium imkoniyatga to'lov	+ 4%
Ikkinchi premium imkoniyatga to'lov	+ 4%
Uchinchi premium imkoniyatga to'lov	+ 5%

5.5.3. Progress maksimal chegaraga yetganda uning qiymati nolga tushiriladi (0% ga qaytariladi) va Progress qaytadan yig'ila boshlaydi.

- 5.5.4. Har bir yangi kalendar oyi boshida, oldingi kalendar oyida to'plangan Progress darajasidan qat'i nazar, u avtomatik tarzda nolga tushiriladi (0% ga qaytariladi). Progress yig'ilishi qaytadan boshlanadi.
- 5.5.5. Agar Aksiya Ishtirokchisi belgilangan muddat davomida Aksiyaga qaytmasa, uning Progressi quyidagi jadvalga muvofiq bekor qilinadi.

Davr	Progress % yo'qotilishi
Har kun	1%

- 5.5.6. Minimal Progress 0% ni tashkil etadi, Progressning manfiy qiymatga tushishiga yo'l qo'yilmaydi.

6. QIMMATLI SOVRINLAR/BONUSLI XIZMAT TO'PLAMLARINI QO'LGA KIRITISH

- 6.1. Kompaniya super-o'yinda o'ynaladigan sovrinni mustaqil ravishda belgilaydi.
- 6.2. G'olib aniqlangach, Kompaniya Ishtirokchini identifikatsiyadan o'tkazadi.
- 6.3. Limitlar tasodifiy tartibda belgilanadi. Bunda Aksiya Ishtirokchisi bir xil Limitni bir necha bor yutib olishi mumkin.
- 6.4. Limitlar (internet trafik, daqiqalar, SMS, shuningdek qo'shimcha GSM xizmatlari) bonusli xizmat to'plamlari doirasida Aksiya Ishtirokchilariga xizmat belgilangan paytda abonent raqamiga taqdim etiladi.
- 6.5. Sovrin belgilangani haqidagi ma'lumot mobil ilova ichidagi tarixda saqlanadi.
- 6.6. Super-o'yin g'oliblariga yutib olingan jismoniy sovrinlar yetkazib berilmaydi. Sovrinlarni topshirish joyi haqida ma'lumot g'oliblarga telefon orqali yoki SMS xabar orqali yutib olingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida yetkaziladi.
- 6.7. Sovrinlar G'oliblarga topshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni Tashkilotchi mustaqil ravishda va o'z mablag'lari hisobidan to'laydi. Bunda hisoblangan daromadlar va to'langan soliqlar haqida ma'lumotnoma taqdim etilmaydi.
- 6.8. Jismoniy sovrinlar topshirilganda G'olib topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolashi shart.
- 6.9. Agar Ishtirokchi-G'olib belgilangan muddat ichida bog'lanmasa, yutuq bekor qilinadi. G'olib sovrinni olish uchun borish va qaytish bilan bog'liq barcha xarajatlarni, shuningdek sovrinni olish bilan bog'liq boshqa xarajatlarni o'zi qoplaydi.
- 6.10. Super-o'yin jismoniy sovrinlari Aksiya Ishtirokchisiga yutib olinganligi va sovrin topshirish joyi haqida xabar berilganidan keyin, shaxsni tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgan holda, 30 kalendar kuni ichida topshiriladi.
- 6.11. Agar Ishtirokchi belgilangan muddat ichida kelmasa, yutuq bekor qilinadi.
- 6.12. Super-o'yin jismoniy sovrinlari faqat G'olibning abonent raqamiga rasmiylashtirilgan shaxsiga topshiriladi.
- 6.13. Super-o'yin tirajida Tashkilotchining test raqamlari, Tashkilotchi xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari ishtirok eta olmaydi.
- 6.14. Super-o'yin jismoniy sovrinlarini olish uchun Aksiya Ishtirokchilari – g'oliblar shaxsni tasdiqlovchi hujjat asl nusxasini taqdim etishlari shart, shuningdek Operator zarur bo'lsa, boshqa hujjatlarni ham talab qilish huquqiga ega. Operator o'z navbatida taqdim etilgan hujjatlarning Operator bazasidagi ma'lumotlarga mosligini tekshiradi.
- 6.15. Operator quyidagi hollarda Super-o'yin jismoniy sovrinini Aksiya Ishtirokchisiga berishni rad etish huquqiga ega:
- Ishtirokchi Aksiya shartlariga javob bermasa;
 - Ishtirokchi ushbu qoidalar va shartlarni buzgan bo'lsa;
 - Shaxsni tasdiqlovchi hujjat taqdim etilmasa;
 - Sovrin uchun G'olibning abonent raqamiga rasmiylashtirilmagan shaxs murojaat qilsa;
 - Aksiya Ishtirokchisi – G'olibga yutuq haqida xabar berilganidan keyin 30 kalendar kuni ichida sovrinni olish uchun kerakli hujjatlar bilan kelmasa;
 - Aksiya Ishtirokchisi sovrindan voz kechishini yutuq haqida xabar berilganidan keyin 30 kalendar kuni ichida yozma ravishda taqdim etsa;
 - Aksiya Ishtirokchisi – G'olibga sovrin topshirish hujjatlarini imzolashdan bosh tortsa;

- G‘olib Tashkilotchi xodimi yoki uning yaqin qarindoshi bo‘lsa.
- 6.16. Sovrinlar almashtirilmaydi. Pul ekvivalenti berilmaydi.
- 6.17. Xizmatlar, Limitlar, Chiroyli raqamlar, ularning amal qilish muddati, shuningdek obuna, Imkoniyat, Premium Imkoniyat va Super-o‘yin doirasida taqdim etiladigan qo‘shimcha va jismoniy sovrinlar ro‘yxati haqida ma‘lumot ucell.uz saytida joylashtiriladi. Operator ko‘rsatilgan ro‘yxatga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega, bunda ucell.uz saytida ma‘lumot o‘z vaqtida yangilanadi.
- 6.18. Qo‘shimcha shartlar:
 - Xizmatlar/Limitlar tasodifiy tartibda, ma‘lum bir mantiqqa rioya qilinmagan holda belgilanadi;
 - Daqiqalar limiti O‘zbekiston bo‘ylab chiqish qo‘ng‘iroqlariga amal qiladi;
 - SMS limiti faqat O‘zbekiston bo‘ylab SMS yuborishga amal qiladi;
 - Daqiqalar, SMS va internet trafik limitlari Roumingda amal qilmaydi;
 - Taqdim etilgan limitlar umumlashtirilmaydi va belgilangan amal qilish muddati oxirigacha amal qiladi.
 - Aksiya doirasida xizmatlarni belgilash tartibi va shartlari:
 - Limitlar faqat Aksiya Ishtirokchisining abonent raqamiga, belgilangan vaqtda Faol holatda (abonent raqami shaxsiy hisobida ijobiy qoldiq bo‘lsa) belgilanadi.
- Aksiya doirasidagi xizmat Ishtirokchi mobil ilovada zarur amalni bajarganidan so‘ng darhol belgilanadi.

7. AKSIYA SHARTLARINI QABUL QILISH

- 7.1. *bilan o‘qib chiqqanini va to‘liq tushunganini kafolatlaydi.
- 7.2. Operator taklif va ushbu shartlarni bir tomonlama bekor qilish yoki o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Har qanday o‘zgarishlar ular e‘lon qilingan kunda yoki e‘londa oldindan ko‘rsatilgan sanada kuchga kiradi. Barcha e‘lonlar Operatorning saytida joylashtiriladi.
- 7.3. Agar Aksiya Ishtirokchisi ushbu Oferta shartlaridagi o‘zgarishlar bilan rozi bo‘lmasa, u o‘z ishtirokini bekor qilish huquqiga ega.

8. AKSIYANING QO‘SHIMCHA SHARTLARI

- 8.1. Mazkur Aksiyadan butun O‘zbekiston Respublikasi hududida, ushbu shartlarda belgilangan tartibda, Operatorning Prepaid va Postpaid* tizimidagi tarif rejalarida faol holatda bo‘lgan, jismoniy shaxs abonentlari – O‘zbekiston fuqarolari, 18 yoshga to‘lganlar foydalanishi mumkin.
*Postpaid tizimidagi quyidagi shartnomalarda xizmatlardan foydalanuvchi Kompaniya abonentlarining aksiyaga foydalanish huquqi:
 - Corporate VIP PINFL
 - Corporate VIP Non-PINFL
 - Individual Postpaid PINFL
 - Individual Postpaid Non-PINFL
- 8.2. Aksiyada ishtirok etar ekan, har bir Ishtirokchi o‘zining shaxsiy ma‘lumotlarini mazkur Aksiyani o‘tkazish maqsadida «COSCOM» MChJ tomonidan yig‘ilishi va qayta ishlanishiga rozilik bildiradi.
- 8.3. Har bir Ishtirokchi Aksiya shartlarini bajarish bilan bog‘liq barcha to‘lovlarni (Internet to‘lovi va boshqalar) mustaqil amalga oshiradi.
- 8.4. Aksiya haqida barcha ma‘lumotlarni www.ucell.uz saytida va Ucell mobil ilovasida olish mumkin.
- 8.5. Mazkur Oferetada bevosita nazarda tutilmagan hollarda, Abonent va Operator Prepaid va Postpaid tizimidagi mobil radiotelefon aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ommaviy oferta hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalariga amal qiladilar.
- 8.6. Mobil ilova Operator tomonidan Aksiya Ishtirokchilarini boshqa xizmatlar haqida xabardor qilish uchun ham qo‘llanilishi mumkin.
- 8.7. Abonent Aksiyada Ishtirokchi bo‘lgan paytdan boshlab, Aksiya davomida uskunalarda, ma‘lumot uzatish tarmoqlarida va dasturiy ta‘minotda Operatorga bog‘liq bo‘lmagan hamda mustaqil bartaraf etish imkoniyati bo‘lmagan texnik nosozliklar yuz berishi mumkinligini qabul qiladi. Shu sababli har bir Ishtirokchi Aksiyada o‘z ishtiroki jarayonini (xizmatlar, progress va hokazolarni hisoblash) mustaqil kuzatadi. Agar Ilovaning noto‘g‘ri ishlashi yoki Xizmatlarning noto‘g‘ri

ko'rsatilishi holatini aniqlasa, ushbu Oferetada belgilangan tartibda Ishtirokchi buni darhol Operatorga 8123 (Operator abonentlari uchun) yoki +99893 180 00 00 raqamlariga murojaat qilib xabar qilishi shart. Faqatgina shunday murojaatdan keyin Operator nosozlik mavjudligini tekshiradi va tasdiqlangan taqdirda hisob-kitoblarni to'g'irlaydi, aks holda Operator texnik nosozliklar oqibatlarini uchun javobgar emas.

- 8.8. Operator ushbu Oferetada tasvirlangan Aksiyaning o'zining texnik imkoniyatlarini inobatga olgan holda taqdim etadi.
- 8.9. Operator O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining qarorlarini bajarish, shuningdek ishlab chiqarish zaruratidan kelib chiqadigan ishlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lib, bunday hollarda xizmatlar sifatining vaqtinchalik yomonlashuvi yoki uzilishi yuz berishi mumkin.
- 8.10. Tomonlar faqat muzokaralar orqali, yuzaga keladigan har qanday kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun barcha sa'y-harakatlarini amalga oshiradilar. Agar kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan bartaraf etishning imkoni bo'lmasa, tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda O'zbekiston Respublikasi sud organlariga murojaat qiladilar.
- 8.11. Mazkur Oferetada tartibga solinmagan masalalarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, shuningdek Operatorning ichki hujjatlariga amal qiladilar.
- 8.12. Mazkur Ommaviy Oferta o'zbek va rus tillarida e'lon qilingan bo'lib, ikkala til ham teng yuridik kuchga ega. Agar matnlarda tafovut bo'lsa, rus tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

9. FORS-MAJOR

- 9.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar bunday bajarmaslik Aksiya o'tkazilish davrida yuzaga kelgan bartaraf etib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari natijasi bo'lsa. Fors-major holatlari bu Tomonlar o'zlarida mavjud bo'lgan vositalar bilan oldindan aytib bo'lmaydigan yoki oldini olish mumkin bo'lmagan favqulodda hodisalar yoki holatlar hisoblanadi. Bunday "favqulodda hodisalar yoki holatlar" quyidagilarni o'z ichiga oladi, biroq ular bilan cheklanmaydi: yong'inlar, uchinchi shaxslarning harakatlari, tabiiy ofatlar (suv toshqinlari, zilzilalar va hokazo), harbiy harakatlar, O'zbekiston Respublikasi vakolatli boshqaruv organlarining harakatlari yoki me'yoriy hujjatlari, shuningdek, Tomonlarning oqilona nazoratidan tashqarida bo'lgan va favqulodda xarakterga ega bo'lib, Tomonlar tomonidan oldindan ko'rilishi yoki oldi olinishi mumkin bo'lmagan boshqa holatlar.

10. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

- 10.1. Aybdor tomon faqatgina boshqa tomonga yetkazilgan, hujjatlar bilan tasdiqlangan bevosita zararlar uchun javobgar hisoblanadi. Bilvosita zararlar, ma'naviy zarar hamda boy berilgan foyda amaldagi qonunchilik tartibida qoplanadi.
- 10.2. Operator quyidagi hollarda javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi:
 - Aksiya Ishtirokchisining Abonent qurilmasidan noto'g'ri foydalanishi oqibatida Xizmatlarni ko'rsatib bo'lmashligi;
 - Aksiya Ishtirokchisining ilova/xizmatlardan foydalanishi chog'ida yuzaga kelgan tasodifiy yoki bilvosita zararlar;
 - Aksiya Ishtirokchisiga taqdim etilgan ma'lumotlarning uning shaxsiy kutgan natijalariga yoki subyektiv bahosiga mos kelmasligi;
 - O'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, agar bunga telekommunikatsiya va energetika tarmoqlaridagi nosozliklar, zararli dasturlar, shuningdek, Operatorning dasturiy va/yoki apparat majmuasiga ruxsatsiz kirish va/yoki uni ishdan chiqarishga qaratilgan uchinchi shaxslarning noxolis harakatlari sabab bo'lgan bo'lsa;
 - G'oliblarning mukofotlarni olish imkoniyati yo'qolishiga olib kelgan har qanday holatlar va faktlar, shuningdek, G'oliblarning tegishli xabarnomalarni o'z vaqtida o'qib chiqmaganligi uchun;
 - Aksiyaning shartlarini lozim darajada bajarmaslik, agar bunday bajarmaslik Tashkilotchining nazorati doirasidan tashqaridagi sabablarga bog'liq bo'lsa. Tashkilotchining nazorat sohasi faqat xizmatning ishlash qobiliyati bilan cheklanadi va uchinchi shaxslarning aybi bilan yuzaga

kelgan nosozliklar yoki davlat organlari tomonidan qo'yilgan taqiqlar va cheklovlar oqibatida yuzaga kelgan holatlar uchun javobgarlikni o'z ichiga olmaydi.

- Ilovadan foydalanish yoki undan foydalana olmaslik oqibatida Aksiya Ishtirokchisiga yetkazilgan bevosita yoki bilvosita zararlar, agar ular Tashkilotchining aybisiz yuzaga kelgan bo'lsa (xatoliklar, nosozliklar, ishdagi uzilishlar, funksiyalarning o'zgarishi, nuqsonlar, kechikishlar sababli);
 - Operatorga tegishli bo'lmagan, Operator boshqaruvida bo'lmagan yoki Operatorga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra uskuna va/yoki dasturiy ta'minot nosozligi natijasida xizmat ko'rsatishdagi uzilishlar;
 - Ilovaning ishlash qobiliyatini ta'minlash zarurati bilan bog'liq holda uskuna, dasturiy ta'minot almashtirilishi yoki boshqa ishlar bajarilishi oqibatida yuzaga kelgan xizmat ko'rsatishdagi to'liq yoki qisman uzilishlar;
 - Internet tarmog'ining ayrim segmentlarining ishlashi va mavjudligi.
- 10.3. Aksiya Ishtirokchisi esa quyidagilar uchun javobgardir:
- Ushbu Oferta doirasida belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik oqibatida yuzaga keladigan har qanday zararlar yoki boshqa salbiy oqibatlar uchun.